

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati

2026-yil yanvar-mart

- I. Yalpi ichki mahsulot
- II. Sanoat ishlab chiqarishi
- III. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
- IV. Inflyatsiya darajasi va iste'mol narxlari indeksi
- V. Asosiy kapitalga investitsiyalar
- VI. Bajarilgan qurilish ishlari
- VII. Chakana savdo tovar aylanmasi
- VIII. Tashqi savdo aylanmasi
- IX. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari
- X. Korxonalar va tashkilotlar soni



I. Yalpi ichki mahsulot

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2026-yilning yanvar-mart oylarida O'zbekiston Respublikasining yalpi ichki mahsuloti (YaIM) hajmi joriy narxlarda **447 935,3** mlrd so'mni hamda 2025-yilning mos davri bilan taqqoslaganda real o'sish sur'ati **8,7 %** ni tashkil etdi.

Sanoat tarmog'ining o'sishi **8,0 %** ni va YaIM o'sishiga ijobiy hisssasi **2,2** foiz punktni (f.p.) tashkil etdi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining o'sishi **5,1 %** ni va YaIM o'sishiga ijobiy hisssasi **0,4** f.p.ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining o'sishi **15,0 %** ni tashkil etdi. Qurilish tarmog'ining YaIM o'sishiga ijobiy hisssasi **0,9** f.p.ni tashkil etdi.

Xizmatlar ko'rsatish sohasida o'sish sur'ati **8,8 %** ni tashkil etdi. Shundan savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar **15,5 %** ga, tashish va saqlash, axborot va aloqa **14,4 %** ga hamda boshqa xizmat sohalari **4,4 %** ga o'sdi. Xizmatlar ko'rsatish sohasining YaIM o'sishiga ijobiy hisssasi **4,9** f.p.ni tashkil qildi.

Mahsulotlarga sof soliqlar hajmi **8,2 %** ga o'sdi va uning YaIM o'sishiga ijobiy hisssasi **0,3** f.p.ni tashkil etdi.



II. Sanoat ishlab chiqarishi

2026-yilning yanvar-mart oylarida respublika korxonalari tomonidan **289 254,4** mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi va sanoat ishlab chiqarishi indeksi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **108,0 %** ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida ishlab chiqaradigan sanoatning ulushi **85,1 %**, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati **7,0 %**, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash **7,4 %**, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish **0,5 %** ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi o'sishining asosiy omili bu ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarida ishlab chiqarish o'tgan yilning shu davriga nisbatan **9,1 %** ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda **3,1 %** ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida **4,1 %** ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sanoatida fizik hajm indeksi **8,5 %** ga oshganligidir.

Qayta ishlash sanoati hajmlarining o'sishiga boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarishning o'sishi (2025-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **185,2 %**), yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), poxol va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish (**175,5 %**) va boshqa transport uskunalari ishlab chiqarish (**149,9 %**)ning o'sishi ta'sir ko'rsatdi.

Shu bilan birga, metallurgiya sanoati korxonalarida (o'tgan yilning mos davriga nisbatan **97,8 %**) ishlab chiqarish hajmlarining pasayishi kuzatildi.



III. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

2026-yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot(xizmat)lari hajmi **63 384,3** mlrd so'mni yoki 2025-yilning mos davriga nisbatan **105,1 %** ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilikda, ovchilikda va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – **59 780,7** mlrd so'mni (**105,2 %**), o'rmon xo'jaligida – **3 063,5** mlrd so'mni (**104,3 %**), baliqchilik xo'jaligida – **540,1** mlrd so'mni (**106,1 %**) tashkil qildi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot(xizmat)lari hajmining oshishi, asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish hajmining ko'payganligi (**4,8 %**) bilan bog'liq. Barcha toifadagi xo'jaliklarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining oshishi sabzavotlarning – **29,0 %** ga, olingan sutning – **4,1 %** ga, olingan tuxumning – **5,7 %** ga, qirqib olingan junning – **28,9 %** ga oshishi bilan izohlanadi.

Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining **81,6 %** dehqon va tomorqa xo'jaliklari, **8,2 %** fermer xo'jaliklari, **10,2 %** qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi xo'jaliklar hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



IV. Inflyatsiya darajasi va iste'mol narxlari indeksi

2026-yilning yanvar-mart oylarida respublika iste'mol sektoridagi inflyatsiya darajasi **1,9 %** ni tashkil etdi.

2026-yil yanvar-mart oylarida oziq-ovqat mahsulotlari narxlari o'rtacha **3,0 %** ga qimmatlashib, inflyatsiya darajasiga **1,22** f.p. ta'sir qilgan bo'lsa, nooziq-ovqat mahsulotlari narxlari ushbu davrda **0,9 %** ga qimmatlashib, umumiy ko'rsatkichning **0,3** f.p. o'sish sur'atini, xizmatlar esa **1,6 %** ga qimmatlashib, umumiy ko'rsatkichni qo'shimcha **0,41** f.p. o'sish sur'atini ta'minladi.

2025-yilning dekabriga nisbatan INI yuqori chegarasi **140,9 %** ("Sug'urtalash va moliyaviy xizmatlar"), quyi chegarasi – **100,3 %** ga ("Ta'lim sohasidagi xizmatlar") yetdi.

2026-yil yanvar-mart oylari uchun yig'ma INI o'sishiga "Oziq-ovqat va spirtsiz ichimliklar" bo'limidagi narxlar o'zgarishi eng katta hissa qo'shdi (jami ta'sirning **61,7 %**). "Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari", "Sug'urtalash va moliyaviy xizmatlar", "Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar" bo'limlarida narxlarning o'sishi hisobiga yig'ma INIning **0,11** f.p.dan oshishiga hissa qo'shdi.

Boshqa bo'limlarda narxlarning o'zgarishi yig'ma ko'rsatkichni yana **0,41** f.p.ga oshirdi.



V. Asosiy kapitalga investitsiyalar

2026-yilning yanvar-mart oylarida, barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi **156 330,4** mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **129,6 %** ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar umumiy hajmida korxonalar mablag'lari hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar ulushi **13,1 %** ni, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar – **6,9 %**, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lar – **2,7 %**, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar – **68,8 %**, shundan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) – **46,2 %**, aholi mablag'lari – **5,6 %**, Respublika budjeti – **2,5 %**, Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi – **0,4 %** ni tashkil qildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning 2025-yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlarini moliyalashtirishning asosiy manbalari: Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi – **284,0 %**, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) – **160,4 %**, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar – **153,3 %**, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar – **133,9 %**, Respublika

budgeti – **118,6 %**, korxonalar mablag'lari – **114,8 %**, aholi mablag'lari – **110,3 %**, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lar – **105,8 %** dan iborat.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha past o'sish sur'atlari boshqa kafolatlanmagan xorijiy investitsiya va kreditlar – **86,1 %** dan iborat.



VI. Bajarilgan qurilish ishlari

2026-yilning yanvar-mart oylarida **63 954,7** mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2025-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **115,5 %** ni tashkil etdi. Qurilish ishlari umumiy hajmining **15 956,4** mlrd so'mi yoki **24,9 %** yirik korxonalar va tashkilotlar tomonidan, **30 762,3** mlrd so'mi yoki **48,1 %** kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan, **17 236,0** mlrd so'mi yoki **27,0 %** norasmiy sektor subyektlari tomonidan bajarildi.



VII. Chakana savdo tovar aylanmasi

2026-yilning yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **123 961,9** mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **25,4 %** ga o'sdi.

Yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasi 2025-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **28,0 %** ga o'sdi, bu esa umumiy savdo hajmining **17,0 %** ulushiga to'g'ri keladi. Kichik biznes subyektlarining chakana tovar aylanmasi 2025-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **22,3 %** ga o'sgan. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **70,1 %** ni, uyushmagan savdo tovar aylanmasi **12,8 %** ulush bilan **15 920,8** mlrd so'mni tashkil etdi.



VIII. Tashqi savdo aylanmasi

2026-yilning yanvar-mart oylari yakuni bilan respublikaning tashqi savdo aylanmasi **18 023,0** mln AQSh dollarini tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan **471,0** mln AQSh dollariga yoki **2,7 %** ga ko'paydi. Eksport hajmi **5 809,2** mln AQSh dollarini tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **29,3 %** ga kamaydi. Import **12 213,8** mln AQSh dollariga yetib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **30,8 %** ga oshdi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi **59,9 %** ni tashkil etdi, shu jumladan sanoat mahsulotlari – **17,8 %**, kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar – **10,6 %**, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar – **9,2 %**.

Import tarkibida asosiy ulushni mashinalar va transport uskunalari (**33,8 %**), sanoat tovarlari (**13,9 %**), shuningdek kimyoviy moddalar va ularga o'xshash mahsulotlar (**12,0 %**) tashkil etdi.



IX. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari

2026-yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **293 605,1** mlrd so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **16,1 %** ga o'sdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga savdo sohasida ishlab chiqarish xizmatlarining **19,4 %** ga (ko'rsatilgan umumiy bozor xizmatlari hajmining o'sishidagi ta'siri – **4,9 f.p.**), moliyaviy xizmatlarning **22,4 %** ga (o'sishdagi ta'siri **3,4 f.p.**), transport xizmatlarining **13,2 %** ga (o'sishdagi ta'siri **2,3 f.p.**), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning **8,6 %** ga (o'sishdagi ta'siri **1,4 f.p.**), shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining **17,0 %** ga (o'sishdagi ta'siri **1,3 f.p.**) o'sishi ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng katta hajmi savdo xizmatlari (**75 051,2** mlrd so'm, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati – **119,4 %**), transport xizmatlari (**49 103,9** mlrd so'm, yoki **113,2 %**), moliyaviy xizmatlar (**46 796,4** mlrd so'm, yoki **122,4 %**), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (**46 224,8** mlrd so'm, yoki **108,6 %**)ga to'g'ri keladi.



X. Korxonalar va tashkilotlar soni

2026-yil 1-aprel holatiga respublikada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **487,1** mingtani (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) tashkil etdi, ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar **417,3** mingta. Hududlar bo'yicha joylashgan eng ko'p soni Toshkent shahri (**109 719** ta), Toshkent (**47 998** ta), Samarqand (**42 416** ta), Farg'ona (**38 600** ta), Qashqadaryo (**31 288** ta), Buxoro (**29 738** ta) va Namangan (**27 644** ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning eng ko'p soni savdo sohasida – **157 422** ta, sanoat sohasida – **61 028** ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida – **37 402** ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – **31 745** hamda qurilish sohasida – **31 411** tani tashkil etdi.

2026-yil yanvar-mart oylarida respublikada **22,8** mingta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, shundan **22,4** mingtasi kichik korxonalar va mikrofirmalardir.

2026-yil 1-aprel holatiga ko'ra respublikada chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni **19 072** tani tashkil etdi. Ularning **4 392** tasi qo'shma korxonalar va **14 680** tasi xorijiy korxonalardan iborat.

Tayyorlash uchun mas'ul:
Statistika ma'lumotlarini
muvofiqlashtirish va tarqatish
boshqarmasi

Manzil: 100170, Toshkent,
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63
Kontaktlar: info@stat.uz
Tel.: +998 71 203-80-00 (1045)

